*Namangan viloyati statistka boshqarmasi*

# Korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*

**2018 yil yanvar– mart holatiga**

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **378** taga o'sdi
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarninig ulushi **5,0 %** foizni tashkil etdi
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **330** taga oshgan.

2018 yilning yanvar-mart oyida Namangan viloyatida 1000 ga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,1 foizga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 % ga oshgan hamda ularning soni 670 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 378 ta (1,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 20330 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Namangan shahrida (39,7%), Chust (8,0 %), Namangan tumani (7,2%) va To'raqo'rg'on (6,0 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

**Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**



*Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi*

*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 aprel holatiga)*

| | Ro'yxatdan o'tgan | | Faoliyat ko'rsatayotgan | |
|---|---|---|---|---|
| | ming birlik | jamiga nisbatan % | ming birlik | jamiga nisbatan % |
| **Namangan viloyati** | **21391** | **100** | **20330** | **100** |
| Namangan shaxar | 8483 | 39,7 | 8009 | 39,4 |
| Mingbuloq tumani | 824 | 3,9 | 813 | 4,0 |
| Kosonsoy tumani | 1224 | 5,7 | 1136 | 5,6 |
| Namangan tumani | 1549 | 7,2 | 1468 | 7,2 |
| Norin tumani | 808 | 3,8 | 785 | 3,9 |
| Pop tumani | 1149 | 5,4 | 1067 | 5,2 |
| To'raq'org'on tumani | 1294 | 6,0 | 1206 | 5,9 |
| Uychi tumani | 1209 | 5,7 | 1196 | 5,9 |
| Uchq'org'on tumani | 1073 | 5,0 | 1059 | 5,2 |
| Chortoq tumani | 1060 | 5,0 | 1012 | 5,0 |
| Chust timani | 1701 | 8,0 | 1603 | 7,9 |
| Yangiq'org'on tumani | 1017 | 4,8 | 976 | 4,8 |

**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va fao'liyatsizlarning ulushi,** % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,0 %ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulishi 5,0 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,2 f.p. kamaygan

2018 yil yanvar-mart holatiga 1000 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 1,1 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Namangan shaxrida (349 ta), Chust (83 ta), Uych (79 ta), Uchq'org'on (68 ta), To'rq'org'on (64 ta), Mingbuloq (59 ta), Namangan tumani (58 ta) Chortoq (55 ta), Kosonsoy (52 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Pop (50 ta), Norin (44 ta), hamda Yangiq'org'on (39 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (270 ta), savdoda (209 ta), boshqa turlarda (258 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (94 ta) va qurilishda (68 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (15 ta) axborot va aloqada (16 ta), yashash va ovqatlanish (30 ta) va tashish va saqlashda (40 ta) tashkil etilgan.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni,** birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,0 f.p), savdoda (-1,9 f.p), qurilishda (-0.1 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (-0,2 f.p.) kamayganligi, buning natijasida sanoatda (+1,9 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,1 f.p.), tashish va saqlashda (+0,3 f.p.) hamda boshqa faoliyat turlarida (+1,3 f.p dan) ulushining o'sishiga olib keldi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi,** foiz punktda

| Iqtisodiy faoliyat turlari nomi | 01.04.2018 y. | 01.04.2017 y. | farqi (+-) |
|---|---|---|---|
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 2,2 | 3,2 | -1,0 |
| Savdo | 23,3 | 25,2 | -1,9 |
| Axborot va aloqa | 1,6 | 1,6 | 0 |
| Sanoat | 19,2 | 17,9 | 1,3 |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi | 7,2 | 7,4 | -0,2 |
| Qurilish | 7,4 | 7,5 | -0,1 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 4,1 | 4,0 | 0,1 |
| Tashish va saqlash | 3,7 | 3,4 | 0,3 |
| Boshqa turlari | 31,2 | 29,9 | 1,3 |

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari).**

2018 yil 1 aprel holatiga 20330 dan oshiq tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 5755 ta, oilaviy korxonalar – 271 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar–9688 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari–27 tani va boshqalar 4589 tani tashkil etadi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi,** birlikda




2018 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 105 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 17 taga yoki 1,2 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 71 tasi qo'shma korxonalar, 34 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni,** birlikda






**Xorijiy kapital  ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi,** birlikda




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar 113 tani tashkil etib ular ning asosiy qismi Namangan shahar 51 ta (45.1%), Uychi va Pop tumanida 9 tadan (8.0%), Namangan va Chust tumanlarida 7 tadan (6.2%), Chortoq tumani 8 ta (7.1 %), Kosonsoy, To'raq'org'on,  tumanlarida 6 ta (5,3%) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Norin, Uchq'orgon, Yangiqo'rgo'n tumanlarida 3 ta (2.7%) , 1 ta (0.9%) Mingbuloq tumani hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital  ishtirokidagi korxonalarning hudular kesimidagi soni,** birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 aprel holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 79 ta (75,2%), savdoda 8 ta (7,6%), boshqa turlarida esa 9 ta (8,6%) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 4 ta, tashish va saqlashda 1 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 2 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 2 ta tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turiga to'gri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,** % da




2018 yilning yanvar-mart oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 4 tani tashkil qilgan. Bu korxonalar Namangan shahar, Namangan va Chortoq tumanlarida ro'yhatdan o'tganligini ko'rish mumkin.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, sanoatda 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.

## Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2018 yil 1 aprel holatiga Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 16151 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 aprel holatiga qaraganda 1,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 6843 tasi (0,4 %) Namangan shahriga, 1277 tasi (0,1 %) Chust tumaniga, 920 tasi To'raq'org'on hamda 934 tasi Uychi tumanlari hissalariga to'gri keladi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi,** ming birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 16151 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 4712 tasi (29,2%)–savdoda, 3872 tasi (24,0 %) - sanoatda, 1508 tasi (9,3 %) - qurilishda, 1454 tasi (9,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 832 tasi (5,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 745 tasi (4,6 %) - tashish va saqlashda, 301 tasi (1,9 %) - axborot va aloqa sohasida, 355 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 2372 tasi (14,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yil yanvar-mart holatiga 798 taga yaqin kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 0,9 foizga kam. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Namangan shahrida (292 ta), Uychi (66 ta), Chust (66 ta) va To'raqo'rg'on tumanlarida (52 ta) tashkil etilgan. Eng kam Uchq'org'on (48 ta), Mingbuloq (38 ta), Norin (35 ta), Pop (34 ta) hamda Yangiq'org'on (32 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (270 ta), savdoda (209 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (93 ta) va qurilishda (68 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (16 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (15 ta) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha hizmatlar (30 ta) tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da





Iqtisodiy faoliyat turlari boyicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,3 % savdoda, 19,2 % sanoatda, 7,4 % qurulishda, 7,2 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 4,1 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,7 % tashish va saqlash, 1,6 % axborot va aloqa, 2,2 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 31,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

**Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,**
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari) % da*




***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi***
*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari), birlikda*



## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni 2018 yilning 1 aprel holatiga 276 tani tashkil etib, ulardan 271 tasi yoki 98,2 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **1,0** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

**Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi,** birlikda






Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 48,3 % yoki 131 tasi sanoat, 15,9 % yoki 43 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 12,5 % yoki 34 tasi savdo, 10,0 % yoki 27 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 0,7 % yoki 2 tasi qurilish, 1,5 % yoki 4 tasi axborot va aloqa, 1,5 % yoki 4 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 9,6 % yoki 26 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,** % da




**Namangan viloyati statistika boshqarmasi**
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida**

**Nashr uchun mas'ul:** **A.Botirov**
(0369) 227-84-96